

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-noyabr oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

RAQAMLAR


7947,3 mlrd.so'm Sanoat ishlab chiqarish hajmi	111,5 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
5118,2 mlrd.so'm Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	127,6 % o'sish sur'ati
64,4 % Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	35,1 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7947,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 111,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati - 10,1 % ga, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash - 29,6 % ni, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash - 6,4 % ga, o'sishi kuzatilgan bo'lsa, SUV bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 4,3 % ga kamayish kuzatildi.

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



2018 yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,01 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7575,8 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,3 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,0 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,6 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 18,0 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,0 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,6 %



Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi - 18,0 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)


Mahsulot turlari		2019 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		500,9	132,2
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		89,4	97,2
Engil avtomobillar		47940	31145
Yuk avtomobilari – dona		6551	6757
Aroq – ming litr		1158,2	1516,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		19,7	19,3
Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming litr		1105,3	1110,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		74619,1	68483,8
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-noyabr</i>	<i>2018 yil yanvar-noyabr</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		1510,3	1812,2
Milliy non (yopgan non) – tonna		639,8	335,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		16009,7	15893,6
Xo'jaliksovuni – tonna		4970	6276
Paxta tolasi –tonna		52659,3	69097,0
Paxta chigititonna		82256,4	106806,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Issiqlik energiyasi 7,8 ming Gkalga;
2. Yuk avtomobilari 206 donaga;
3. Aroq 357,8 ming litrga;
4. Tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lган boshqa tabiiy uzum vinolari 4,7 ming litrga;
5. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
6. Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) 301,9 tonnaga;
7. Xo'jaliksovuni 1306 tonnaga;
8. Paxta tolasi 16437,7 tonnaga;
9. Paxta chigiti 24549,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 319,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,026 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 129,6 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,642 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 66,3 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish 34,9 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 46,9 foiz, Urganch shahri 22,5 foiz, Xonqa 5,1 foiz, Gurlan tumani 4,2 foiz, Shovot 4,1 foizni va Urganch 3,2 foiz hamda eng past bo'lgan Qo'shko'pir tumani 2,1 foiz, Xiva shahri 1,7 foiz va Xiva tumani 1,6 foizni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-noyabr</i>	<i>2018 yil yanvar-noyabr</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	7947,3	5634,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,6	0,5
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,6	0,5
Qayta ishlash faoliyati	7575,8	5421,8
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1165,7	906,1
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	261,8	199,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1480,9	1298,0
Kiyim ishlab chiqarish	30,2	55,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	9,7	5,9
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	8,1	4,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	18,5	16,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,2	1,0
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	25,2	14,6
Asosiy farmasevtika	6,6	6,8
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	111,5	81,6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	334,3	226,0
Metallurgiya sanoati	28,6	9,6
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	159,5	141,3
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,4	0,3
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	37,8	30,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	372,1	195,3


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-noyabr	2018 yil yanvar-noyabr
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3341,0	2071,1
Mebel ishlab chiqarish	32,2	22,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	130,1	120,3
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	20,0	14,1
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	319,9	168,7
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	51,0	43,6

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-noyabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-noyabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 41,0 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-noyabr oylarida bu ko'rsatkich 47,5 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,4 foizdan 8,2 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 46,7 foizdan 39,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 7,0 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-noyabr oylarida 7,1 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 3776,2 mlrd.so'mlik (2311,5 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 654,3 mlrd.so'mlik (472,7 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 3138,3 mlrd.so'mlik (2630,5 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4305,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 109,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-noyabr oylarida Xazorasp tumani 9550,5 ming so'mdan 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 15212,1 ming so'mga, Urganch shahri 9635,8 ming so'mdan 12576,1 ming so'mga, Xonqa tumani 1897,7 ming so'mdan 2192,2 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 5118,2 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 127,6 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 1159,5 mlrd.so'mni va 3958,7 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 110,8 foiz va 133,6 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,4 foizni (2018 yil yanvar-noyabr oylarida 71,2 foiz) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



2019 yil yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2772,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 125,5 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-noyabr oylarida Xazorasp tumani 8354,9 ming so'mdan 2019 yil yanvar-noyabr oylarida 12316,3 ming so'mga, Urganch shahri 5414,2 ming so'mdan 5508,1 ming so'mga, Gurlan tumani 1025,3 ming so'mdan 1087,6 ming so'mga Urganch tumani 870,6 ming so'mdan 937,2 ming so'mga o'sgani kuzatildi.